



BYUDJET TIZIMI BYUDJETLARI O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR SHAKLLARI

Negmatov Bexruz Norboy o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya" fakulteti MMT-96h guruh 3-kurs talabasi

Xushboqov Doniyor Bahadir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya" fakulteti MMT-96h guruh 3-kurs talabasi

Shodiyev Ilhomjon G'ulom o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya" fakulteti MMT-96h guruh 3-kurs talabasi

Annatatsiya: Ushbu maqola byudjetlararo munosabatlarning mohiyatini ko'rib chiqish, ularni rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Byudjetlararo munosabatlar, Byudjet transfertlari, transfertlar.

Jannatmakon yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar pirovardida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va yangilash, barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita bog'liqdir. Dunyoning rivojlangan davlatlarida hududlar taraqqiyoti orqali yuqori ko'rsatkichlarga erishilganligini xorijiy tajribalarni o'rganish jarayonida ko'rishimiz mumkin.

Byudjetlararo munosabatlarning mohiyati boshqaruvning turli darajalari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarda ifodalanadi. Ular, birinchi navbatda, davlat hokimiyyati va boshqaruvi darajalari va shunga mos ravishda byudjet tizimi darajalari o'rtasida daromadlar va xarajatlar vakolatlarini maqbul taqsimlashni, shuningdek, butun mamlakat bo'ylab byudjet ta'minotini tenglashtirishni ta'minlashga qaratilgan.

Ma'lumki, mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari hajmi, mahalliy byudjetlarning barqarorlik ko'rsatkichlari ko'p jihatdan shu hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Barcha darajadagi byudjetlarning mustaqilligi byudjet tizimining asosiy tamoyili sifatida belgilangan bo'lib, ushbu tamoyil turli darajadagi vakolatli hokimiyyat organlarining o'z vakolatlari doirasida byudjet jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqlarini anglatadi.

Byudjetlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda aholi jon boshiga YaIM ko'rsatkichi bilan bir qatorda viloyat bo'yicha o'rtacha hisoblangan ish haqining yashash minimumiga nisbati ham katta ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkich nafaqat ma'lum bir mintaqada turmush darajasini, balki uning ahonisining byudjet xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini ham aks ettiradi. Ish haqining yashash minimumiga nisbati qanchalik past bo'lsa, mintaqaga ahonisining byudjet xizmatlariga bo'lgan ehtiyoji shunchalik yuqori bo'ladi, chunki bunday sharoitda ular o'z daromadlaridan katta miqdordagi xarajatlarni amalga oshira olmaydilar. O'z navbatida, bu ma'lum bir mintaqaga moliyaviy yordamni oshirishni va shunga mos ravishda byudjetlararo munosabatlarni faollashtirishni nazarda tutadi. O'rtacha ish haqi va yashash minimumi o'rtasidagi past nisbat odatda subsidiyalangan hududlarga xosdir.



Har bir darajadagi byudjet daromadlarining o‘z manbalari, shuningdek, hududlardagi vakolatli hokimiyat organlarining soliq qonunchiligidagi belgilangan mahalliy soliqlar va yig‘imlar stavrakalarini o‘zgartirish huquqi qonun asosida mustahkamlab qo‘yilgan. Daromadlar manbalarining belgilanishi va ular qonun asosida mahalliy byudjetlarga biriktirib qo‘yilishi mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi va byudjetlarning daromad manbalarini mustahkamlashdan manfaatdorligini oshiradi. Bunda mahalliy byudjetlarga kelib tushadigan mablag‘larning tartibga soluvchi manbalari belgilangan bo‘lib, ularning jumlasiga belgilangan me‘yorlar bo‘yicha umum davlat soliqlaridan ajratiladigan mablag‘lar kiradi. Barcha darajalardagi byudjetlar xarajatlarining yo‘nalishlari aniq belgilab qo‘yilganligi, shuningdek qo‘sishma daromadlarni taqsimlashda mustaqillikka ega ekanliklari mahalliy hokimiyat organlarining byudjet mablag‘larini mintaqaviy rivojlanish dasturlariga muvofiq samarali sarflab borish imkoniyatini beradi.

Byudjetlararo munosabatlar turli darajadagi byudjetlar (masalan, respublika byudjeti bilan viloyat byudjeti) o‘rtasidagi, shuningdek, davlat byudjeti bilan davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari o‘rtasidagi tegishli byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlashga doir munosabatlardir.

Davlat byudjetining mablag‘lari turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida byudjet transferlari shakllari asosida qayta taqsimlanadi. Byudjet transferlarining Byudjet Kodeksi bilan belgilab berilgan quyidagi shakllari amalda qo‘llaniladi:

- subvensiyalar - muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari;
- o‘tkazib beriladigan daromadlar – tegishli ma‘muriy-hududiy birlikda (masalan, biror tuman, shahar yoki viloyat hududida) shakllanadigan va yuqori turuvchi byudjetga o‘tkaziladigan, keyinchalik ular qayerda shakllangan bo‘lsa, o‘sha ma‘muriy-hududiy birlik byudjetiga o‘tkazib beriladigan daromadlar;
- dotatsiyalar – byudjet tizimi byudjetlariga ularning o‘z daromadlari yetishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o‘rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari;
- byudjet ssudalari – qaytarish sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga, shuningdek, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlariga ajratiladigan pul mablag‘lari;
- o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘lar – moliya yili mobaynida byudjetlar parametrlari o‘zgarganda yuqori va quyi turuvchi byudjetlar o‘rtasida yuzaga keladigan o‘zaro pul munosabatlari;
- maqsadli ijtimoiy transferlar – yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga ta‘lim va tibbiyot muassasalarining ish haqi va yagona ijtimoiy to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarini qoplash uchun ajratiladigan pul mablag‘lari.

Byudjetlararo munosabatlar muammolari ham siyosiy, ham iqtisodiy tarkibiy qismlarga ega ekanligi tobora ayon bo‘lmoqda, ammo ularning qaysi biri ustunlik qiladi, degan savolga javob berish har doim ham oson emas.

Byudjetlararo munosabatlar atamasining mohiyati va ma’nosini aniq tushunmaslik uning mintaqasi yoki munitsipalitetdagi muayyan muammoning haqiqiy sabablaridan uzoqda bo‘lgan hollarda noto‘g‘ri qo‘llanilishiga olib keladi.

Byudjetlararo munosabatlarni rivojlantirishning hozirgi darajasi 2020 yilgacha bo‘lgan davrda byudjetlararo munosabatlarni rivojlantirish strategiyasini qabul qilish imkonini beradi, bu esa ushbu davr uchun byudjetlararo munosabatlarning yagona tamoyillari va yondashuvlarini shakllantirish imkonini beradi va kamdan-kam hollarda transferlarni taqsimlash, daromadlarni ta’minlash va vakolatlarni belgilash mexanizmlariga o‘zgartirishlar kiritish mumkin. Yuqorida aytilganlarning barchasi



byudjetlararo munosabatlarning barqaror tizimini, binobarin, hududiy va mahalliy byudjetlarni shakllantirishning barqaror asosini yaratish imkonini beradi.

Byudjetlararo munosabatlarni ko‘p bosqichli byudjet tizimining faoliyati sifatida tavsiflash mumkin, bunda har bir boshqaruv darajasi o‘z byudjetiga ega va o‘z byudjeti vakolatlari doirasida unga berilgan chegaralar doirasida ishlaydi. Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirishning asosiy qiyinchiliklari hokimiyat organlarining byudjet imkoniyatlarini tartibga solish va taqsimlash va shunga mos ravishda byudjet va soliq vakolatlarini taqsimlash sohasida jamlangan.

Shunday qilib, Byudjetlararo munosabatlар - byudjet mexanizmining muhim ajralmas elementi bo‘lib, mamlakatning ma‘muriy-hududiy tuzilmalari subyektlari o‘rtasida markaziy boshqaruv tomonidan barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilonqa tartibga solishni ta‘minlaydi va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funksiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o‘zaro taqsimlab olish orqali bajarish uchun davlat byudjetida jamlangan pul mablag‘larining bir qismini ushbu subyektlar o‘rtasida qayta taqsimlanishini o‘z ichiga oluvchi munosabatlarni anglatadi.

Zamonaviy byudjet siyosati, jumladan, uning byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan tarkibiy qismi, albatta, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar hajmini oshirish, uning barqaror o‘sishi va raqobatbardoshligini oshirish uchun shart-sharoit yaratish uchun qator shart-sharoitlarni ta‘minlaydi. Bunday siyosatning asosiy xususiyati uni iqtisodiy va moliyaviy nuqtai nazardan moslashuvchan va qo‘llash ob‘ekti ma’nosida universal vositalar yordamida amalga oshirishdir. Ko‘pincha ular iqtisodiyot tarmoqlarini emas, balki makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Nurmuxamedova B.I., Xamdamov Sh.K. Davlat moliyasi. Darslik. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2021. – 436 b.
2. Юлдашева Н.В. Государственный бюджет. Учебное пособие – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2021 г. 457 стр.
3. Nurmuxamedova B. Davlat byudjeti. O,,quv qo,,llanma. –T.: “Iqtisodmoliya”, 2018. - 576 b.
4. Mehmonov S., Karimova Z., Tursunov A. Byudjet tizimi. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2018 y. – 544 b.
5. Жиянова Н.. Управление государственными финансами: Учебное пособие. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019 г. – 384 стр.
6. Жиянова Н., Ташматова Р. Бюджетно-налоговая политика: Учебное пособие. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2019 г. – 216 стр.